

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ _____

2022 yil “ ___ ” _____

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____ Bozorov O.N.
“ ___ ” _____ 2022 yil

**“ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARIDA
XAVFSIZLIK” fanining**

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi 600000 - Xizmatlar
Ta‘lim sohasi 640000 - Hayot faoliyati xavfsizligi
Ta‘lim yo‘nalishi 5640200 - Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi

Jami o‘quv soati: 204			
Shu jumladan	Jami	6-semestr	7- semestr
Ma‘ruza	136	64	72
Amaliy mashg‘ulotlar	36	16	20
Seminar	32	16	16
Mustaqil ta‘lim soati	188	90	98

Fanning ishchi o‘quv dasturi, fan dasturi va ishchi o‘quv rejaga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

B.X.Jurayev – QMII, “Ekologiya va mehnat muhofazasi“ kafedrası assistenti

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedrası yig‘ilishida (bayon №____, ____2022 y.), “Geologiya va konchilik ishi” fakulteti Uslubiy komissiyasida (bayon №____, ____2022 y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon №____, ____2022 y.) muhokama etilgan va o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

QMII O‘quv-uslubiy boshqarma
boshlig‘i:

_____ Sh.R.Turdiyev

Geologiya va konchilik ishi fakulteti
uslubiy komissiyasi raisi:

_____ M. G‘ofirov

Ekologiya va mehnat muhofazasi
kafedrası mudiri:

_____ R.A. Eshonqulov

KIRISH

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PF №4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” qabul qilinganligi uning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida urg‘u qo‘yilgan bo‘lib, ta‘lim sohasida ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta‘lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishni ustuvor vazifa etib belgilangan.

Hozirgi davrda butun jahonda texnika va texnologiya, qishloq xo‘jaligi va koinotni o‘rganish tez suratlar bilan o‘shishi, tabiiy resurslar, o‘simlik va hayvonat olamidani pala-partish foydalanish va yovvoyi tabiatni o‘zlashtirish natijasida tabbiy, biologik, texnogen, ekologik va boshqa ko‘pgina xavflar vujudga kelmoqda. Bu holat esa inson hayot faoliyat xavfsizligini ta‘minlash muammolari yanada keskinlashmoqda. Shu sababli ham “Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi ustuvor yo‘nalishida:

atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofoniga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish masalalari alohida band bilan belgilab qo‘yildi.

Fan, texnika, ta‘lim sohasi, ishlab chiqarishda texnologiya qanchalik rivojlanmasin inson havf-xatardan 100% kafolatlangan emas. Chunki insonning barcha faoliyati va atrof muhit komponentlarining xavfli va zararli omillari, har bir faoliyat natijadan keyin yangi yashirin xavf paydo bo‘lishi tabiiy holdir.

Hayot faoliyatini ta‘minlash muammosini hal etish - odamlarni meyoriy sharoitda faoliyat olib borishi, uni o‘rab turgan atrof muhitdagi ruxsat etilgan meyoridan ortiq xavfli va zararli omillardan himoya qilish, optimal mehnat faoliyat, dam olish sharoiti yaratish va ishlab chiqarishda yuqori ish samaradorlikka erishishdan iboratdir.

Hayot faoliyati xavfsizligining eng asosiy formulasi – bu yashirin (potensial) xavflar haqida ogohlantirish va oldini olishdan iborat.

Ishlab chiqarishda barcha sohalarida ishlayotgan zamonaviy mutaxassislar hayot faoliyati xavfsizligini ta‘minlash maqsadida, atrof muhitda bo‘layotgan salbiy o‘zgarishlarni aniglash, tushinish, oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishga tegishli qarorlar qabul qilish uchun yetarli darajada bilim saviyasiga ega bo‘lishi lozim.

Aynan ushbu bilimni “Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik” fani o‘rganadi.

Ushbu “Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik” fanidan ishchi dastur fan bo‘yicha davlat ta‘lim standarti va namunaviy dastur asosida tuzilib “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” ta‘lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan. Unda fanning maqsad va vazifalari talabalar bilim va ko‘nikmasiga bo‘lgan talablar, mashg‘ulotlarning mavzusi va qisqacha mazmuni, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun zarur texnik vositalar mustaqil ish bo‘yicha ko‘rsatmalar va tavsiya etilgan adabiyotlar ruyxati keltirilgan.

I Fanning oliy ta'limdagi o'rni hamda maqsadi va vazifalari

1.1. O'quv fanning dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dastur fan tarixi, rivoji va istiqboli hamda Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari, ishlab chiqarish va xududiy xavfsizlik muammolarining inson hayoti xavfsizligiga ta'siri masalalarini qamraydi. Zero hozirgi vaziyatda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki texnosferalarda ishlab chiqarish jarayoni buzilishi, ishlovchilar uchun sanitariya va gigiena me'yori va qoidalarini yaratilmasligi, muhit rivojlanishdagi noxush vaziyatlarning murakkablashuvi, davlatlar o'rtasida insoniyat hayotiga xavf-xatar soluvchi holatlarning ro'y berishi, insoniyat tomonidan qo'llanilayotgan turli zaharli va zararli moddalar va vositalar ko'plab xavflarni yuzaga keltirib, insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog'lig'iga, atrof-muhit tozaligiga va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Shu sababli ham mamlakatimizning eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari qatorida aholi hayotining xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarb o'rin olgan. Aynan shu muammolarning echimini "Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik" fani o'rganadi.

Fan o'qitilishining maqsadi – bo'lajak mutaxassislariga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish qoidalarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnogen, ekologik va boshqa tushadigan favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalashga hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat.

O'quv fanini o'rganishning asosiy vazifalari: hayotiy faoliyatda yuzaga keladigan xavflarni identifikatsiyalash va ularni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarning oldini oladigan chora-tadbirlarni o'rganish. Shuningdek, aholini tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalash usullariga o'rgatish, zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik choralari ko'rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.

Mehnat muhofazasi fanini o'qish natijasida bo'lajak mutaxassislar quyidagi bilim va malakaga ega bo'lishlari fanning asosiy vazifalari sanaladi

a) Tasavvurga ega bo'lishlari kerak:

O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lishi ehtimoli bo'lgan tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlarning umumiy tavsiflari;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish;

favqulodda vaziyatlardan keladigan talofatlarini kamaytirish va oqibatlarini bartaraf etish;

ishchi-xizmatchilar va aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash;

shaxsiy himoya vositalarining turlari va ulardan foydalanish.

ishlab chiqarishda ishchilarga xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini yaratish;

baxtsiz hodisalarni sabab va oqibatlari haqida tasavvurga ega bo'lish;

ishlab chiqarish sanitariyasi asoslari haqida tasavvurga ega bo'lish;

b) Talabalar bilishlari kerak:

favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni muhofazalash sohasida qabul qilingan qonun xujjatlari va boshqa hujjatlarning asosiy talablarini;

favqulodda vaziyatlarda rahbar xodim va fuqarolarni muhofazalash sohasidagi huquq va burchlari;

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini (FVDT);

aholini favqulodda vaziyatlardan muhofazalanishga tayyorlash tartibini;

o'quv muassasalari obyektlarida va hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni;

favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda va sodir bo'lganda harakat qilish, shu jumladan muassasaning harakat rejasi va o'zaro hamkorlik rejasi boyicha harakat qilish qoidalari va tartiblarini;

favqulodda vaziyatlarda ma'naviy- ruhiy barqarorlikni ta'minlash masalalari;

favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish usullarini;

favqulodda vaziyatlarda o'z-o'ziga va o'zaro tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari va tartibini;

fuqaro muhofazasi ogohlantirish signallarini;

radiatsion, kimyoviy va biologik (bakteriologik) razvedka, dozimetrik nazorat asboblaridan foydalanish tartibi va qoidalari;

jamo va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish qoidalari va tartibini.

v) Talabalar bajarishlari lozim:

jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsata olishni;

favqulodda vaziyat xavfi tug'ilganda va sodir bo'lganda harakat qilishni, shu jumladan o'quv muassasasining harakat va o'zaro hamkorlik rejalarini asosida harakat qilishni;

jamo va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanishni;

radiatsiyaviy, kimyoviy va biologik (bakteriologik) razvedka va dozimetrik nazorat asboblari bilan ishlashni;

kimyoviy paket va shaxsiy dori qutisidan foydalanishni;

fuqaro muhofazasi normativlarini tez va qat'iylik bilan bajarishni;

tuzilmalar tarkibida harakat qilishni.

1.2 Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik fanining boshqa fanlar va ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liqligi

“Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik” fani “Mehnat muhofazasi”, “Hayot faoliyati xavfsizligi”, “Muhandislik psixologiyasi”, “Psixofiziologiya”, “Ergonomika”, “Texnikaviy estetika”, “Atrof muhit himoyasi va ekologiya”, “Favqulodda holatlar va fuqarolar muhofazasi” kabi fanlarning yutuqlariga asoslanadi. Ushbu fanlar bilan birga tadqiqot qiladi va o'rganadi. Lekin, insonning hayot faoliyatida barcha turdagi bog'lanishlar bir vaqtda yuzaga keladi va shu sababli inson o'z faoliyatida bir necha omillar bilan bog'lanadi, o'zaro ta'sirda bo'ladi. Shu sababli insonning hayot faoliyati davridagi umumlashgan xavfli va zararli faktorlarning inson sog'ligiga va mehnat qobiliyatiga birgalikda ta'sirini alohida mustaqil fan - “Mehnat muhofazasi” o'rganadi.

Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik fanini o'rganish nafaqat texnosferada xavflar tug'ilganda, balki **ishlab chiqarish jarayonida** ishlovchilarni kasb kasalligiga

chalinishlarini qisqartirish, baxtsiz hodisalar oldini olish shuningdek, biosferada (atrof-muhitda) yuz beradigan favqulodda vaziyatlarda insonlar o'limi va moddiy zararlar miqyosini kamaytirish imkonini beradi.

II. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda obyektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

muammoli mavzular bo'yicha;

mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;

ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;

oldinga siljigan ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan;

mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollektivlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan **amalga oshirishni nazarda tutadi.**

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

Dastur talabalar bilimni reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning yangi tamoyillari asosida amalga oshadi.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish, darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalaridan, ma'ruzalar o'qish, elektron plakatlar va internet tarmog'idan foydalaniladi.

"Mehnat muhofazasi" fanini o'qitish jarayonida quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliqi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z – o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish usuli ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtiradi. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini ijodiy tarzda qo'llanilishi dialektik mushohadani shakllantiradi va rivojlantiradi natijada talabani mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash–yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida va butun kurs davomida o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib boriladi. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Mehnat muhofazasi” fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “Pover Point” prezentatsiya va “Excel” elektron jadval dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimni baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ulubiy ko'rsatmalar ko'rinishidagi tarqatma materiallar tayyorlanadi, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

III. “Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik” fani bo'yicha “5640200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishida soatlarning taqsimlanishi

Jami o'quv soati: 204			
Shu jumladan	Jami	6-semestr	7- semestr
Ma'ruza	136	64	72
Amaliy mashg'ulotlar	36	16	20
Seminar	32	16	16
Mustaqil ta'lim soati	188	96	108

3.1 Ma'ruza mashg'ulotlari

T/R	Mavzu	Soat
6-semestr		
1	“Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik” fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari.	2
2	Xavfsizlik bo'yicha davlat siyosati. ICHJX tomonidan o'rganilgan muammolar.	2
3	Respublikamizda ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarda qo'llaniladigan mashina va mexanizmlarda mehnat va texnika xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishlarning hozirgi holati va istiqbollari.	2
4	Xavfsizlikning huquqiy asoslari. Ishlab chiqarishni tashkil qilishda qo'yiladigan xavfsizlik talablari va ularning huquqiy asoslari.	2
5	Ishlab chiqarishni tashkil qilishda qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ulardan foydalanish.	2

6	Ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha asosiy talablar va ularni tartibga soluvchi standartlar, me'yorlar, qoidalar, texnik talablar.	2
7	Suv xo'jaligi tizimining tashkiliy strukturasi. Suv xo'jaligida ekspluatatsiya va qurilish tashkilotlari.	2
8	Suv xo'jaligi sanoat korxonalarini. Ularda bajariladigan ish jarayonlaridagi xavfsizlik masalalari.	2
9	Suv xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari. Suv xo'jaligi ishlab chiqarishidagi umumiy xavfli va zararli faktorlarning o'ziga xosligi.	2
10	Dala sharoitlarida mashina va mexanizmlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning o'ziga xos xususiyatlari.	2
11	Yuzaga keladigan xavfli va zararli omillar. Ta'mirlash yoki xizmat ko'rsatish joyini, vaqtini tanlash hamda ishlarni bajarishga xavfsizlik talablari.	2
12	Dala sharoitlarida xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga qo'yiladigan talablar va ularga beriladigan shaxsiy himoya vositalari.	2
13	Dehqonchilik ishlari to'g'risida tushunchalar. Dehqonchilik ishlarining o'ziga xos xususiyatlari.	2
14	Dehqonchilik ishlarining tarkibi va jarayonlari. Agrotexnik tadbirlar.	2
15	Dehqonchilik ishlarini bajarish jarayonlarida xavfli va zararli omillar.	2
16	Dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini. Xavfsizlik talablari.	2
17	Qishloq xo'jalik mashinalaridan foydalanish bilan bog'liq umumiy xavfsizlik masalalari.	2
18	Chorvachilik ishlari to'g'risida tushunchalar. Chorvachilik ishlarining o'ziga xos xususiyatlari.	2
19	Chorvachilik ishlarining tarkibi va jarayonlari. Bajariladigan tadbirlar.	2
20	Chorvachilik ishlarini bajarish jarayonlarida xavfli va zararli omillar.	2
21	Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini. Xavfsizlik talablari.	2
22	Yangi ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarini loyihalashda va amaliyotga tatbiq qilishda xavfsizlik talablari hisobga olinishi lozim bo'lgan asosiy bosqichlar.	2
23	Loyiha ishlari, loyiha turlari va loyiha bosqichlari.	2
24	Loyiha ishlarini bajarishda qo'llaniladigan asbob uskunalar va texnikalar hamda xavfli va zararli omillar.	2
25	Gidrotexnik inshootlar loyihasini bajarishda qo'yiladigan xavfsizlik talablari.	2
26	Meliorativ tarmoqlarini qurish maqsadida olib boriladigan injenerlik-dala-qidiruv ishlarini bajarishda umumiy xavfsizlik talablari.	2
27	Dalada yashash va ishlash sharoitlarini tashkil qilishga doir umumiy xavfsizlik talablari. Topografik ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari.	2
28	Gidrometrik ishlarni bajarishda xavfsizlik talablari.	2
29	Yer ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari.	2
30	Yer ishlarini mexanik usul bilan bajarishda qo'llaniladigan mexanizmlar va asbob uskunalar.	2
31	Yer-tuproq ishlarini bajarishga qo'yiladigan umumiy xavfsizlik talablari.	2
32	Gruntli inshootlar ishonchli ishlashini ta'minlash texnologiyalari.	2
Jami:		68
7-semestr		

1	Yer ishlarini bajarishda portlatish usulini qullanishi. Portlatishning atrof muhitga ta'siri, xavfsizlik masalalari	2
2	Portlatish turlari, vositalari, moddalari, mexanizmlari va boshqa kursatkichlari. Portlatish ishlarini bajarish jarayonidagi xavfli va zararli faktorlar.	2
3	Portlatish ishlarini bajarishda xavfli zonani hisoblash. Portlatish ishlarini bajarishdagi xavfsizlik talablari.	2
4	Portlovchi moddalarni tashishda, ishlatishda texnika xavfsizligi.	2
5	Gidromexanizasiya usulining mohiyati. Hidromexanizasiya usulida ishlatiladigan mashina mexanizmlar. Ularning turlari va ishlash prinsiplari	2
6	Gidromexanizasiyaning sxemalari. Hidromexanizasiya mexanizmlarini ishlatish jarayonlaridagi xavfli va zararli faktorlar	2
7	Gidromexanizasiya ish jarayonlarini bajarishda xavfsizlik talablari	2
8	Betonli, temir-betonli va tosh ishlarini bajarishga quyiladigan umumiy talablari. Beton qorishmani tayyorlash, tashish va quyishda xavfsizlik talablari.	2
9	Ishlatiladigan mashina va mexanizmlar texnik xolatiga xavfsizlik talablari	2
10	Armatura ishlarida, qoliplar tayyorlash va urnatish ishlarida xavfsizlik talablari. Yig'ma temir-beton konstruksiyalar, pulat konstruksiyalar, yirik panelli va blokli konstruksiyalarni yig'ish paytidagi chora tadbirlari.	2
11	Tosh ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari. Balandlikda ishlashda, xavozalar va oyok osti surilaridan foydalanganda, ularni yig'ishda va qismlarga ajratish jarayonida xavfsizlik chora talablari.	2
12	Xavozalarning barqarorligi va mustaxkamligini tekshirish va hisoblashning asosiy qoidalari. Qishki sharoitlarda tosh ishlarini bajarganda xavfsizlik talablari.	2
13	Montaj ishlari tug'risida tushuncha. Montaj ishlarining mohiyati. Montaj ishlarida ishlatiladigan asbob uskunalar va texnikalar. Ularni jarayoni haqida. Montaj jarayonlaridagi xavfli va zararli faktorlar.	2
14	Burg'ulash va quduqlar qazish ishlarida xavfsizlik talablari. Burg'ulash maydonlarini tashkil qilishga, ko'chma burg'ulash mashinalari va stanoklarning texnik holatiga va ularni ishlatishga xavfsizlik talablari.	2
15	Quduqlar qazishda zararli gazlar yo'qligini nazorat qilish va havo almashtirishni tashkil qilish. Ishlarni qishgi sharoitlarda bajarganda xavfsizlik talablari.	2
16	Qoliplar o'rnatish va qoziq oyoqlar qoqish ishlarida xavfsizlik talablari. Qo'llaniladigan mexanizmlar texnik holatiga va ularni qishki sharoitda ishlatilganda qo'yiladigan xavfsizlik talablari. Hidroizolyatsiya ishlarini ishlatishda xavfsizlik talablari.	2
17	Drenaj ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari. Bu jarayonlarni bajarishda qo'llaniladigan mashina va mexanizmlar texnik holatiga va ishlatishga qo'yiladigan texnik talablari.	2
18	Ochiq va yopiq turdagi, hamda vertikal turdagi drenajlarni qurishda xavfsizlik choralari. Kanalizatsiya ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari.	2
19	Mexanizatsiyalashgan qurilish va tashish ishlarini bajarishdagi ishlab chiqarish jarohatlanishlari va ularning sabablari. Qurilish mashina va mexanizmlarning texnik holatiga qo'yiladigan umumiy xavfsizlik talablari.	2
20	Qurilish mashina va mexanizmlarining turg'unligini ta'minlash tadbirlari. Minorali va xartumli kranlarni ishlatishda xavfsizlik talablari. Yuklash tushirish mashina va mexanizmlarni ro'yxatga olish, texnik ko'riklardan o'tish qoidalari.	2
21	Qurilishda qo'llaniladigan mashina vositalari texnik holatiga va ularni ishlatishga qo'yiladigan umumiy xavfsizlik tadbirlari.	2
22	Tashish ishlarini bajarishda yuzaga keladigan xavfli omillar va himoyalani tadbirlari. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga qo'yiladigan talablar. Yo'l transport	2

	hodisalarining oldini olish tadbirlari.	
23	Meliorativ texnikalarning texnik holatiga bo'lgan xavfsizlik talablari. Meliorativ texnikalarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda xavfsizlik chora tadbirlari.	2
24	Gidromeliorativ tizimlari va gidroinshootlarni ishlatishda umumiy xavfsizlik talablari. Ochiq sug'orish quritish tizimlaridan foydalanishda xavfsizlik talablari.	2
25	Yopiq sug'orish tizimlarini ishlatishda xavfsizlik talablari. Kanallarni, nasos stansiyalarini, gidroturbinalar va boshqa gidrokuch qurilmalarini, sun'iy yong'ir yog'diruvchi sug'orish mashinalari va uskunalarini ishlatishda umumiy xavfsizlik talablari.	2
26	Meliorativ tizimlarda ekspuatsiya-ta'mirlash jarayonlarini mexanizatsiyalashda xavfsizlik talablari. Sug'orish quvurlarini ta'mirlashda va sinashda xavfsizlik talablari.	2
27	Gidrotexnika ishlarida montaj demontaj ishlarida xavfsizlik talablari. Kanallarni cho'kindi va o'simlaiklardan tozalashda, drenajlarni yuvishda va boshqa ishlarda xavfsizlik talablari.	2
28	Yuqoridagi ishlarni bajaruvchi ko'chma va stasionar mashina va mexanizmlarni ishlatishda xavfsizlik talablari.	2
29	Meliorativ tarmoqdagi ish sharoitini yaxshilovchi avtomatika va telemexanika uskuna va qurilmalar hamda ularni ishlatishda xavfsizlik talablari.	2
30	Korxonalarni hududda joylashtirishga va ularning territoriyasini rejalashtirishga qo'yiladigan umumiy xavfsizlik talablari. Ishlab chiqarish binolariga va xonalariga qo'yiladigan umumiy xavfsizlik talablari.	2
31	Ishlab chiqarish korxonalaridagi stanoklarni, jihozlarni va asbob-uskunalarini joylashtirishga, hamda ularning texnik holatiga xavfsizlik talablari. Ish o'rnini tashkil qilishga xavfsizlik talablari.	2
32	Korxonalarda yordamchi va qo'shimcha xonalarga bo'lgan umumiy xavfsizlik va sanitariya-gigienik talablar. Suv ta'minoti va kanalizatsiya. Transport yo'llari va harakatni tashkil qilish.	2
33	Yuzaga keladigan xavfli va zararli omillar. Texnologik jarayonlarga xavfsizlik talablari.	2
34	Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga qo'yiladigan talablar va ularga beriladigan shaxsiy himoya vositalari. Xavfsizlik talablari bajarishni nazorat qilish.	2
35	Ishlab chiqarishda xona, jihozlar va texnologik uskunalariga qo'yiladigan xavfsizlik talablari.	2
36	Materiallarni, sovutuvchi suyuqliklarni, zagatovkalarini, tayyor detallarni va chiqindilarni saqlashga xavfsizlik talablari. Yong'in va portlash xavfsizligini ta'minlash. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga qo'yiladigan talablar va ularga berilgan shaxsiy himoya vositalari. Xavfsizlik talablari bajarishni nazorat qilish.	2
Jami		72

3.2 Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari

T/R	Mavzu	Soat
6-semestr		

1	Ishlab chiqarish jarayonlari to'g'risida hukumat qonunlari, qarorlari, me'yoriy va boshqa hujjatlar.	2
2	Ilmiy tadqiqot va loyiha tashkilotlarining tashkiliy strukturasi va xarakterini o'rganish.	2
3	Suv xo'jaligi qurilish tashkilotlari tuzilishi va ish xarakterini o'rganish.	2
4	Chorvachilik maxsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda xavfsizlik.	2
5	Dehqonchilik maxsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda xavfsizlik.	2
6	Yer ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari.	2
7	Portlatish ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari.	2
8	Beton ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari.	2
Jami:		16
7-semestr		
1	Montaj ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari	4
2	Yuk ko'tarish-tushirish mashinalarini ruyxatga olishni tartibini o'rganish.	2
3	Qurilish xovozalari va oyoq osti suri (taxta,supa) larine yig'ish (montaj) va ularni tashkil qiluvchi qisimlarga ajratish (demontaj) jarayonlarida bexatar ishlash usullarini o'rganish.	4
4	Zovur va kotlovonlarning tik devorini mustahkamlash usullarini o'rganish.	2
5	Metalni va yog'ochni qayta ishlash korxonalarida ishlovchilar uchun xavfsizlikni taminlash uchun tavsiyalar ishlab chiqish.	4
6	Meliorativ va qishloq xo'jaligi texnikalarining xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun tavsiyalar ishlab chiqish.	4
Jami:		20

3.3 Seminar mashg'ulotlarning mavzulari

T/R	Mavzu	Soat
6-semestr		
1	Ishlab chiqarish jarayonlari xavfsizligining huquqiy va me'yoriy asoslarini o'rganish.	2
2	Suv xo'jaligi tashkilotlarining ishlab chiqarishdagi xavfsizlik masalalarini o'rganish.	2
3	Suv xo'jaligi mashina va mixanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda xavfsizlik talablarini tahlil qilish.	2
4	Dehqonchilikda xavfsizlik masalalari va ularning ayrim xususiyatlari.	2
5	Chorvachilikda xavfsizlik masalalari va ularning ayrim xususiyatlari.	2
6	Ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni loyihalashda xavfsizlik masalalarini tahlil qilish.	2
7	Gidromeliorativ va qurilish ishlaridagi asosiy texnologik jarayonlarni bajarishga xavfsizlik talablarini o'rganish.	2
8	Portlatish ishlarida xavfsizlik talablari tahlili.	2

Jami:		16
7-semestr		
1	Gidromexanizatsiya usuli bilan yer ishlarini bajarishda xavfsizlik talablarini o'rganish.	2
2	Beton va temirbeton ishlarini bajarish jarayonlarida xavfsizlik talablari.	2
3	Yig'ma temir-beton va po'lat konstruksiyalar, yirik panelli va blokli konstruksiyalarni yig'ish paytidagi xavfsizlik chora tadbirlarini o'rganish.	2
4	Montaj ishlarini bajarish jarayonlarida xavfsizlikka quyiladigan talablar.	2
5	Qurilish mashina va mexanizmlarga quyiladigan xavfsizlik talablari taxlili.	2
6	Gidromeliorativ tizimlarda xavfsizlik masalalari	2
7	Ishlab chiqarish korxonalaridagi asbob-uskunalarini joylashtirishga, hamda ularning texnik holatiga xavfsizlik talablari taxlili	2
8	Ishlab chiqarish korxonalarida yongin va portlash xavfsizligini ta'minlash	2
Jami:		16

3.4 Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni

Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik fani bo'yicha talaba mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

fandan amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;

ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;

prezentatsiyalar tayyorlash;

ko'rgazmali vositalar tayyorlash;

maqola, tezislar tayyorlash;

bitiruv malakaviy ishi uchun materiallar to'plash;

amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik fanining mustaqil ish mavzulari

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabaning mustaqil ishi uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
1. Texnologik jarayonlarda texnika xavfsizligi bo'yicha meyoriy texnik xujjatlarni o'rganish.
2. Ishlab chiqarish jarayonlari va ularda qo'llaniladigan asbob-uskunalariga mashina va mexanizmlarga bo'lgan asosiy xavfsizlik talablari keltirilgan xujjatlarni o'rganish.
3. Texnologik jarayonlarning xavfsizlik darajasiga baxo berishni urganish.
4. Qurilishni tashkillashtirish loyixasida xavfsizlik talablari masalalarining yoritilganlik darajasini o'rganish.
5. Ishlarni olib boorish loyixasida xavfsizlik talablari xavfsizlik talablari masalalarining yoritilganlik darajasini urganish.

6. Qurilishning taqvimiy va tarmoqiy (grafik) rejalarida xavfsizlik talablari masalalarining yoritilganlik darajasini o'rganish.
7. ximoya zonalarida ish olib boorish uchun ruxsat olish tartibini va zarur xujjatlarni urganish.
8. portlash va gidromexanik usullarda gruntga ishlov berishda xavfsizlik talablari bo'yicha meyoriy-texnik xujjatlarni o'rganish.
9. Suv oqimida ish bajarishda qayiqlar va katerlarda foydalanishda xavfsizlik talablari bo'yicha meyoriy-texnik xujjatlarni o'rganish.
10. suv xo'jalik tizimining tashkiliy strukturasi urganish.
11. Suv xo'jaligi ishlab chiqarishdagi umumiy xavfli va zararli faktorlarning o'ziga xosligini o'rganish.
12. Tamirlash yoki xizmat ko'rsatish jarayonlarida yong'in xavfsizligini taminlash.
13. Dala sharoitida xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga xavfsizlik talablari taxlili.
14. Dexqonchilik ishlarining bajarish jarayonlarida agrotexnik tadbirlarning bajarilish tadbirlari.
15. Dexqonchilik maxsulotlarini qayta ishlash korxonalarida xavfsizlik masalalari va ularga qo'yiladigan talablar.
16. Qishloq xo'jalik mashenalaridan foydalanishda umumiy xavfsizlik masalalarini o'rganish.
17. chorvachilikda ishlatiladigan texnika va uskunalarga qo'yiladigan xavfsizlik talablari.
18. Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida xavfsizlik masalari va ularga qo'yiladigan talablar.
20. Yangi ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni loyixalashda va amalyotda tadbir qilishda xavfsizlik talablari xisobga olinishi lozim bo'lgan asosiy bosqichlarni o'rganish.
21. loyixa ishlariini bajarishda bo'lishi mumkun bo'lgan xavfli va zararli faktorlarni o'rganish.
22. topgrafik ishlarni bajarishda xavfsizlikka qo'yiladigan talablar.
23. yer ishlarini bajarishda qo'yiladigan xavfsizlik talablari va ularning taxlili.
24. Qo'da ekskavatorlarda va boshqa yer qazish mashenalarida tuproqqa ishlov berishda xavfsizlik talablari.
25. Portlashning atrof muhitga tasirini o'rganish, xavfli va zararli omillar.
26. Portlatish turlari, vasitalari, moddalari, mexanizmlari va boshqa ko'rsatkichlar.
27. portlovchi moddalarni tashishda va ishlatishda xavfsizlik masalalari.
28. betonli temir betonli va tosh ishlarini bajarishda ishlatiladigan mashena va mexanizmlar texnik xolatiga xavfsizlik talablari.
29. havozaalarining barqarorligi va mustaxkamligi tekshirishning asosiy qoidalari
30. Montaj ishlarida ishlatiladigan asbob uskunalar va texnikalarga qo'yiladigan texnik talablar.
31. Quduqlar qazish ishlarini qishki sharoitlarda bajarganda xavfsizlik talablari.
32. Qrenaj ishlarini bajarishda qo'yiladigan asosiy xavfsizlik talablari.
33. kanalizatsiya ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari.
34. Qurilish va mashena mexanizmlarining texnik xolatiga qoyiladigan xavfsizlik talablari.
35. Yuklash va tushurish mashena mexanizmlarini ro'yxatga olish, texnik ko'riklardan

o'tish qoidalari.
36.Yo'l transport xodisalarining oldini olish tadbirlarini tashkil etish.
37.Meliorativ texnikalarining texnik xolatiga bao'lgan xavfsizlik talablar.
38.Ochiq va yopiq sug'rish tizimlarini ishlatishda xavfsizlik talablari.
39.Sug'orish quvurlarini tamirlashda va sinashda xavfsizlik talablari.
40.Ishlab chiqarish korxonalarida ish o'rnini tashkil qilishga xavfsizlik talablari.

IV. Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish

Talabalar bilimini nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom (*Nizom O'z.R. OO'MTVning 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. O'z.R. OO'MTVning 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan.*) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida uch turdagi, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Joriy nazorat - fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari buyicha. og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Oraliq nazorat – semestr davomida modulli tizim asosida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki (yoki bir) marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) hamda soni o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi

Yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi. Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og'zaki, test va boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish.

Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirishini aniqlash uchun quyidagi baholash turlari o'tkaziladi:

Oraliq baholash (OB) - semestr davomida talabaning fan o'quv dasturini tegishli tugallangan bo'lim(lar)ini o'zlashtirishini baholash usuli. OB soni (bir semestrda 2 tadan oshmasligi lozim) va shakli (suhbat, yozma ish, og'zaki so'rov, test o'tkazish, kollokvium, hisob-grafika ishi, nazorat ishi, kurs ishi, kurs loyixasi, ijodiy topshiriq va hokazo) fan xususiyati va unga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

Yakuniy baholash (YAB) - semestr yakunida talabning muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishini baholash usuli. U asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan yozma ish, og'zaki so'rov, test, ijodiy ish va boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Talabning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

5 (a'lo) baho:

xulosa va qaror qabul qilish;
ijodiy fikrlay olish;
mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

4 (yaxshi) baho:

mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

3 (qoniqarli) baho:

mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

2 (qoniqarsiz) baho:

dasturni o'zlashtirmaganlik;
fanning mohiyatini bilmaslik;
aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
mustaqil fikrlay olmaslik.

V. Dasturning informatsion- uslubiy ta'minoti.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish, FVga oid qonunlari, kodekslar, Prezident Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, chet el va Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar, elektron adabiyotlar, virtual laboratoriyalar, laboratoriya mavzusiga oid texnik jihozlar, turli slaydlar, vikepediyalar, ilmiy jurnallardagi maqolalar, ma'ruza matnlari, fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar hamda Internet materiallaridan foydalaniladi.

VI. Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

6.1. Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

6.1.1. Asosiy adabiyotlar

1. Axmedov I. Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik. T.2015y.
2. С.В.Белов. Безопасност производственных процессов. М. 1985г.
3. Yormatov K. va boshq. Mehnat muxofazasi. Toshkent, O'zbekistan 2002y.
4. Goyipov X.E. Mexnat muxofazasi. Toshkent, «Mehnat», 2000.

5. Oтоxonov M. Kurilishda mehnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi. Toshkent. Mehnat, 1991y.
6. Пчелинцев В.А. и др. Охрана труда в строительстве. М.: Высш. Шк, 1W1.
7. Bobojonov R.D., Ibragimov E.I., «Hayot faoliyat xavfsizligi» fanidan ma’ruzalar matni tuplami. Toshkent. 2000y.

6.1.2.Qo‘shimcha adabiyotlar

- 1 .I.Axmedov. Ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlik fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha metodik kursatma. TIMI. 2015y.
2. Шкрабак В.С. и др. Охрана труда. М.: Агропромиздат, 1989.
- 3.Долин П.А. Справочник по технике безопасности. М.: Энергоатомиздат, 1985.
- 4.Охрана труда в сельском хозяйстве. Справочник сост. Михайлов В.М. и др. М.: Агропромиздат 1988
- 5.Охрана труда в водохозяйственном строительстве. Справочник сост. Дубовский К.Н., Неежмак П.А. М.: Агропромиздат, 1986.
- 6.Dadaboyev Y., Xamidov M. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda mehnat muxofazasi. Toshkent. Mehnat. 1990.
- 7.Луцкий В.Г. Охрана труда при эксплуатации оросительных систем. М.: Агропромиздат. 1990.
- 8.Рыльцев А.Н., Охрана труда в гидротехническом строительстве. “В ысшая школа”, 1973.
- 9.Фурман И.В. Техника безопасности в мелиоративном строительстве. Справочник. М.: Колос. 1979.
- Ю.Фурман И.В., Безопасность труда при эксплуатации гидромелиоративных систем. М.: Колос, 1982.
- 11.Фурман И.В. Охрана труда при выполнении гидромелиоративных работ. М.: Россельхозиздат, 1982.
- 12.Охрана труда. Под.ред. В.М.Канарева. М , Агропромиздат, 1988г
- 13.Зайцев В.П., Свердлов М.С. Охрана труда в животноводстве. М.: ВО Агропромиздат, 1989.
14. Беляков Г.И. Охрана труда, М.: ВО Агропромиздат, 1990.
- 15.Русин В.И., Орлов Г.Г. Охрана труда в сельском строительстве, М., 1987.

Elektron resurslar

1. www.bilim.uz.
2. www.ziyo.edu.uz
3. www.mchs.gov.uz
4. www.google.uz.